

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

BADIIY MATNDA LINGVOMADANIY KODLAR

Kasimova Ma'rifat Badritdinovna

Andijon davlat chet tillari instituti, dotsent.

e-mail: marifat.kasimova@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-9555-4563>

Annotatsiya.

Maqolada badiiy matn tarkibida lingvomadaniy kodlarning voqelanishi va ularning ichki tizimli tasnifi lingvomadaniyatshunoslik hamda kognitiv tilshunoslik kontekstida tahlil etilgan. Lingvomadaniy kodlarning badiiy diskurs integratsiyasini ta'minlash va pragmatik mazmun kasb etish mexanizmi o'zbek adabiyotidan olingan matniy misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy diskurs, kognitiv-diskursiv yondashuv, lingvomadaniy kod, fitomorfik kod, zoomorfik kod, predmet kodi, diniy kod.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ КОДЫ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Касимова Маърифат Бадритдиновна

Андижанский государственный институт иностранных языков, доцент.

Аннотация.

В статье анализируются особенности реализации лингвокультурных кодов в художественном тексте и их внутренняя системная классификация в контексте лингвокультурологии и когнитивной лингвистики. На материале текстовых примеров из узбекской литературы раскрывается механизм, посредством которого лингвокультурные коды обеспечивают интеграцию художественного дискурса и приобретают прагматическое содержание.

Ключевые слова: художественный дискурс, когнитивно-дискурсивный подход, лингвокультурный код, фитоморфный код, зооморфный код, предметный код, религиозный код.

LINGUOCULTURAL CODES IN LITERARY TEXT

Kasimova Ma'rifat Badritdinovna

Andijan State Institute of Foreign Languages, Associate Professor.

Abstract.

The article analyzes the realization of linguocultural codes in literary texts and their internal systematic classification within the framework of linguoculturology and cognitive linguistics. The mechanism through which linguocultural codes ensure the integration of literary discourse and acquire pragmatic meaning is revealed through textual examples taken from Uzbek literature.

Keywords: literary discourse, cognitive-discursive approach, linguocultural code, phytomorphic code, zoomorphic code, object code, religious code.

Kirish. Badiiy matn til va madaniyatning o'zaro munosabatini aks ettiruvchi murakkab semiotik tizim hisoblanadi. Unda voqelik bevosita emas, balki muallifning individual dunyoqarashi, milliy qadriyatlarini va madaniy tajribasi orqali qayta konseptualashtiriladi. Shu bois badiiy matn tarkibida somatik, zoomorfik, fitomorfik, mifologik hamda diniy kodlar keng qo'llanilib, ular matnning semantik va pragmatik qatlamini boyitadi. Mazkur kodlar nafaqat nominativ ma'noni, balki obrazlilik, ramziylik va madaniy konnotatsiyalarni ham yuzaga chiqaradi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, badiiy matn muallifning konseptual olami va lisoniy shaxsini ifodalovchi model sifatida namoyon bo'ladi. V. A. Maslova ta'kidlaganidek, til madaniyatni saqlaydi, uzatadi va insonning olam haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Shu sababli badiiy asarni anglash jarayonida nafaqat til birliklari, balki ularning ortida turgan lingvomadaniy mazmunni ham hisobga olish zarur [1].

Y. M. Lotman badiiy matnni madaniyatning ikkilamchi modellastiruvchi tizimi sifatida tavsiflaydi. Olimning fikricha, badiiy matnda har bir belgi qo'shimcha estetik va madaniy axborot tashuvchi birlikka aylanadi. Natijada matnni to'liq talqin qilish o'quvchining madaniy kodi va lingvomadaniy kompetensiyasiga bevosita bog'liq bo'ladi [2]. Demak, badiiy matndagi madaniy kodlarni aniqlash va ularning funksiyasini tahlil qilish asarning mazmuniy qatlamlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA. Metafora zamonaviy kognitiv tilshunoslikda nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki inson tafakkurining olamni konseptualashtirish va idrok etish mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilinadi. G. Lakoff va M. Johnson ta'kidlaganidek, metaforalar insonning abstrakt tushunchalarni konkret tajriba orqali anglashiga xizmat qiladigan konseptual tizimning muhim tarkibiy qismidir [3]. O'zbek badiiy tafakkurida metaforik obrazlarning

shakllanishi xalqning tarixiy xotirasi, turmush tarzi, urf-odatlar, mifologik tasavvurlari va tabiat bilan bog'liq qarashlari bilan uzviy bog'liqdir. V. A. Maslova qayd etganidek, til madaniyatni saqlovchi va uzatuvchi vosita bo'lib, undagi metaforik birliklar xalqning olam haqidagi konseptual tasavvurlarini aks ettiradi [4].

Fitomorfik kod. Sharq madaniyatiga ko'ra, anor to'kin-sochinlik, go'zallik va naslning davomiyligi ramzi bilan bog'liq kuchli madaniy koddir. Biroq shoira Uvaysiy ushbu an'anaviy kodni o'ziga xos tarzda transformatsiya qiladi. U diqqat markazini anorning moddiy shakliga qaratadi.

*Ul na gumbazdur, eshigi, tuynugidin yo'q nishon,
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdir makon.
Tuynugin yorib, qizlar holidin olsam xabar,*

Yuzlarig'a parda tortig'liq, turarlar bag'ri qon. (Uvaysiy)

Uvaysiyning ushbu mashhur chistoni badiiy san'at va xalq og'zaki ijodi an'analarining yuksak namunasi bo'lish bilan birga, zamonaviy tilshunoslik, xususan, lingvomadaniy jihatdan fitomorfik kod asosiga qurilgan matn hisoblanadi. Fitomorfik kod tizim sifatida o'simlik dunyosi belgilari — shakli, rangi, ichki tuzilishi, rivojlanish bosqichlari vositasida inson, jamiyat va olam hodisalarini modellashirishga xizmat qiladi. Mazkur she'rda topishmoqning javobi bo'lmish «anor» mevasi to'g'ridan to'g'ri nomlanmay, inson olami va madaniy ramzlar bilan ko'chirilib, fitomorfik parallelizm hosil qilgan.

Ul na gumbazdur, eshigi, tuynugidin yo'q nishon... misrasida fitomorfik kodning birinchi darajasi — ob'ektning tashqi morfologik belgilarini geometrik-me'moriy shakllar orqali kodlashdir. Anorning yumaloq va pishiq po'sti matnda «gumbaz» sifatida berilgan. Sharq me'morchiligida gumbaz muqaddaslik, sirlik va yaxlitlik ramzidir. «Eshigi va tuynugidan nishon yo'qligi» anor mevasining tashqi dunyodan mutlaqo ajratilganligini, uning ichidagi pishib yetilish jarayoni tashqi ta'sirlardan xoli, yopiq tizimda kechishini ko'rsatadi. Bu fitomorfik belgi anorning uzoq vaqt davomida o'z tabiiy xususiyatlari va suvini yo'qotmay saqlay olishiga ishora qiladi.

Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdir makon misrasida anor ichidagi donalar va ularni o'rab turgan pardasimon qobiq antropomorfik usulda qizlar obrazi orqali kodlangan. *Gulgunpo'sh* — gul rangidagi, ya'ni qizil, pushti libos kiygan demakdir. Bu fitomorfik belgi anor donalarining yorqin qizil rangini metaforalashtiradi. Til va madaniyatda qizillik — go'zallik, hayotiy energiya va sog'liq ramzi hisoblanib, qiz bola majoz bilan ideal darajada moslashadi. Anor donalarining bir dona meva ichida zich, tartibli va geometrik aniqlik bilan joylashganligi «bir makonda jam bo'lgan tutqunlikdagi qizlar» sifatida tasvirlangan. Bu botanik xususiyat she'rda ijtimoiy va madaniy birlik, ya'ni haramdagi qizlar davrasi kodiga ko'chgan.

*Sindurib gumbazni alar holidin olsam xabar,
Yuzlarig'a parda tortig'liq, turarlar bag'ri qon.*

She'rning eng yuksak kognitiv nuqtasi — o'simlikning biologik tuzilishini insonning hissiy-psixologik holati va ijtimoiy-madaniyati orqali kodlashdir. Anor mevasining ichida donalar guruhini bir-biridan ajratib turuvchi, ularni pana qilib turuvchi yupqa, oq rangli po'stloq-pardalar chiqadi. Uvaysiy bu botanik detalni Sharq ayollariga xos bo'lgan hayo, iffat va parda kodiga aylantirgan. Parda anor donalarining go'zalligini tashqi ko'zlardan himoya qilib turadi. Anor donalarining la'idek qizilligi, ichi shirin-nordon sharbat bilan to'laligi badiiy matnda «bag'ri qonlik» sifatida berilgan. Mumtoz she'riyatda «bag'ri qonlik» — oshiqlik, hijron azobi yoki ichki bir dard bilan yashash belgisidir. Bu fitomorfik kod mevaning pishib yetilishidagi og'riqli, bosim ostidagi jarayonni, ya'ni meva pishganda o'z-o'zidan yorilib ketish darajasiga yetishini inson qalbining iztirobi bilan tenglashtiradi.

Zoomorfik kod. Mumtoz adabiyot, ayniqsa, tasavvuf she'riyati matn ortiga yashiringan implitsit (yashirin) ma'nolarga o'ta boyligi bilan ajralib turadi. Bu yo'nalishda so'z san'atkorlari eng murakkab metafizik tushunchalarni, ilohiy tafakkur pog'onalar va nafs tarbiyasi bosqichlarini kitobxonga tushunarli tilda bayon qilish uchun ramz va majozlardan kalit sifatida foydalanganlar. Ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» («Qushlar tili») dostoni butun jahon adabiyoti tizimida zoomorfik kodning mukammal, tizimli va ko'p qatlamli namunasi hisoblanadi. Navoiy Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» asariga ijodiy yondashib, falsafiy ramzlarni sof turkiy til imkoniyatlari va milliy-madaniy dunyoqarash bilan boyitdi, natijada kognitiv jihatdan mukammal kodlangan tizim yuzaga keldi.

Simurg' — oddiy kundalik hayotda uchramaydigan, jahon mifologiyasida, xususan, Sharq madaniyatida ulug'vorlik, sirlik va erishib bo'lmaz oliy maqomni ifodalovchi qushdir. U odamlar ko'zidan uzoqda, dunyoning chegarasi hisoblangan muqaddas Qof tog'ida yashaydi. Navoiy talqinida Simurg' — Alloh taoloning, Uning jamoli va lomakonlik sifatlarining zoomorfik kodidir. Simurg'ning patlaridan biri Chin (Xitoy) mulkiga tushib, butun dunyoni nurga to'ldirishi esa ilohiy tajalliy va koinotning yaratilishiga ishora qiluvchi kognitiv detaldir. Fors tilida «si» — o'ttiz, «murg'» — qush demakdir, ya'ni «si murg'» birikmasi «o'ttiz qush» ma'nosini anglatadi. Safar oxirida saqlanib qolgan o'ttiz qush Simurg'ning haqiqati aslida ularning o'z ichida, o'z ruhiyatida ekanligini anglab yetadilar. Alisher Navoiy ushbu lisoniy va zoomorfik kod orqali tasavvufning «Vahdat ul-vujud» (borliqning yagonaligi) nazariyasini dekodlaydi. Inson ruhi ilohiy nurning bir zarrasi bo'lib, u o'z nafsini poklash va dunyoviy bog'lanishlardan qutulish orqali o'z Asliga qaytadi va Unda foni bo'lib, Baqo topadi.

Diniy kod. Etnolingvistik o'ziga xoslik, har bir millatning olamni anglash manzarasi uning tilidagi madaniy kodlarda muhrlanadi, masalan, o'zbeklardagi «duo» diniy kodining ijtimoiy ahamiyati muhim sanaladi.

Said Ahmadning «Qorako'z Majnun» hikoyasida parallel holatni tasvirlovchi ikki kichik epizod berilgan:

1. Saodat aya bomdod namozini o'qib, joynamoz poyida uzoq o'tirib qoldi. Bundan uch yil oldin olamdan o'tgan eri usta Turobga atab Qur'on tilovat qildi. O'ris shaharlarida daydib qolib ketgan o'g'li Bo'rixonga Xudodan insof tiladi. Baxti ochilmay, guldek umri xazon bo'layotgan qizi Qumriga achinib, shu farishtaganing yo'lini och, deb Allohga iltijo qildi.

Kampir har sahar ichki bir ezginlik bilan shu gaplarni takrorlardi. (Said Ahmad, "Qorako'z Majnun")

2. Kampir bomdod namozini o'qiyotib, har sajdaga bosh qo'yganida joynamozga ko'z yoshlari tomardi. U joynamoz burchagini qayirib, eriga atab Qur'on tilovat qildi. Baxti chopmagan Qumriga bag'ishlab, shu farishtaganing yo'lini och, deb Allohga iltijolar qildi. G'oyibdan hozir bo'lgan o'g'lining nomini tilga ham olmadi. (Said Ahmad, "Qorako'z Majnun")

Birinchi holatda ona uzoq yildan beri dom-daraksiz ketgan o'g'lini ko'rish umidida har namozdan keyingi duolarida unga insof tilaganligi tasvirlansa, ikkinchi holatda o'g'lini topgach, undan ko'ngli qolganligi, uning dindan qaytgan abgor holatini ko'rgandan keyin butunlay umidini uzganligi "G'oyibdan hozir bo'lgan o'g'lining nomini tilga ham olmadi" jumlasida implitsit tarzda qisqa va lo'nda ifoda etilgan. Demak, bu o'rinda duo kodi insonning ichki psixologik-kognitiv holati, his-tuyg'ulari bilan chambarchas bog'liq ekanligini anglatadi.

Predmet kodi. Predmet kodi badiiy asarda yozuvchi niyatini yuzaga chiqarishda muhim vosita bo'la oladi.

Bir mahal orqa tomondan gumburlagan ovoz keldi:

– Ma, qizim, yeb ol, buvang aylansin!

Qarasam, boyagi chol sedana sepilgan oppoq kulchani ushatyapti. Jonholatda qo'limni cho'zdim. Chol kulchani ikkiga bo'lib, yarmini menga, yarmini dadamga berdi.

– Bundan ham og'ir yillarni ko'rganmiz, ma'lim! – dedi yana shang'illab. – Bu kunlar ham o'tadi-ketadi.

Dadam aravaga o'tirib, meni bag'riga olarkan, cholg'a qaradi.

– Yo'l olismi, oqsoqol?

– Olis... No'g'ayqo'rg'onga boramiz!

– Soat necha bo'ldi? – dedi dadam quyosh botib borayotgan ufqqa qarab.

– Soat? – Chol dadamga bir qarab qo'ydi-da, arava ichida yotgan qamchini oldi. – Soatni boshingga urasanmi!

Qarasam, cholning ko'krak cho'ntagida boyagi yaltirab turgan soat zanjiri ko'rinmayapti. (O'. Hoshimov, "Ikki eshik orasi")

Parchadagi voqealar og'ir ocharchilik yillariga to'g'ri keladi. Shunday sharoitda o'zi och va muhtoj bo'la turib, qo'lidagi bor rizqini begona bola va uning otasi bilan baham ko'rish — milliy mentalitetning oliy nuqtasi. Muallif cholning soatni nima qilganini ochiq aytmaydi. Ammo qahramonning ko'kragida yaltirab turgan kumush soat zanjirining yo'qolishi o'quvchiga bor haqiqatni anglatadi: matnning tagma'nosida chol o'zi uchun qadrli bo'lgan, urush davridagi oxirgi boyligi hisoblangan soatni kulchaga almashgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, lingvomadaniy kod badiiy matnni tushunish, undagi muallifning konseptual olamini anglash va germeneytik tahlilni amalga oshirishda eng samarali vositalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maslova V. A. *Лингвокультурология*. – Москва: Академия, 2001.
2. Lotman Yu. M. *Структура художественного текста*. – Санкт-Петербург: Искусство–СПБ, 1998.
3. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
4. Maslova V. A. *Лингвокультурология*. – Москва: Академия, 2001.
5. Холомеев О. М., Туник А. И. Зооморфный культурный код в русской лингвокультуре (на материале художественных текстов) // *Вестник Нижегородского университета им. Н. И. Лобачевского*. – 2023. – № 3. – С. 215–224.
6. Uvaysiy. Biografik ma'lumotlar. – URL: <https://ziyouz.com/jahonotin-uvaysiy>.